



*Farangiz QURBONOVA,*  
*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o'qituvchisi*  
*E-mail: kurbonova98@gmail.com*

*Termiz davlat pedagogika instituti "Amaliy ingliz tili" kafedrasini mudiri N.Madalov taqrizi asosida*

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAQSAD HAMDA INTILISHNI IFODALOVCHI FRAZELOGIZMLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida maqsad hamda intilishni ifodalovchi frazeologik birliklar qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida mazkur frazeologizmlarning semantik xususiyatlari, ularning metaforik asoslari hamda milliy-madaniy obrazlari chuqur o'rganiladi. Har ikki til misolida maqsad sari intilish, qat'iyat, mehnatsevarlik va ambitsiya kabi tushunchalarni ifodalovchi frazeologik birliklar aniqlanib, ularning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ushbu frazeologik birliklarning lingvokulturologik jihatlari ham yoritilib, ular orqali har bir xalqning mentaliteti, tarixiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini qanday aks ettirishi ko'rsatib beriladi. O'zbek tilida bunday ifodalar ko'proq sabr-toqat, jamoaviylik va fidoyilik g'oyalari aks ettirsa, ingliz tilida individual muvaffaqiyat, tashabbuskorlik va natijaga yo'naltirilganlik kabi tushunchalar kuchliroq ifodalanadi.

**Kalit so'zlar:** frazeologizm, maqsad, intilish, semantika, qiyosiy tahlil, o'zbek tili, ingliz tili.

## ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ, ВЫРАЖАЮЩИЕ ЦЕЛЬ И СТРЕМЛЕНИЕ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье проводится сравнительный анализ фразеологических единиц узбекского и английского языков, выражающих цель и стремление. В ходе исследования рассматриваются семантические особенности данных фразеологизмов, их метафорическая основа, а также национально-культурные образы, отраженные в их структуре и значении. На материале двух языков выявляются фразеологические единицы, передающие такие понятия, как целеустремленность, решительность, трудолюбие и амбициозность, и анализируются их сходства и различия. Особое внимание уделяется лингвокультурному аспекту фразеологических единиц, поскольку через них проявляются особенности национального менталитета, исторического опыта и культурных ценностей народа. В узбекском языке подобные выражения чаще отражают идеи терпения, коллективизма и самоотверженности, тогда как в английском языке более ярко выражены представления об индивидуальном успехе, инициативности и ориентации на результат.

**Ключевые слова:** фразеологизм, цель, стремление, семантика, сравнительный анализ, узбекский язык, английский язык.

## PHRASEOLOGICAL UNITS EXPRESSING GOAL AND ASPIRATION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article provides a comparative analysis of phraseological units in Uzbek and English that express goals and aspiration. The study examines the semantic characteristics of these phraseological expressions, their metaphorical foundations, and the national and cultural imagery embedded in their structure and meaning. In both languages, idiomatic expressions that convey concepts such as determination, perseverance, diligence, and ambition are identified and analyzed in order to highlight their similarities and differences. Particular attention is paid to the linguocultural dimension of these phraseological units, as they reflect the national mentality, historical experience, and cultural values of each linguistic community. In Uzbek, such expressions often emphasize patience, collective effort, and devotion, while in English they tend to highlight individual success, initiative, and result-oriented behavior.

**Keywords:** phraseologism, purpose, aspiration, semantics, comparative analysis, Uzbek, English.

**Kirish.** Til kommunikativ, emotsional-ekspressiv va akkumulyativ vazifalar bilan bir qatorda turli sohalarida axborot yetkazish, insonlar o'rtasida yaqinlikni mustahkamlash hamda qadriyatlar asosida tarbiyalash kabi muhim funksiyalarni ham bajaradi. Tilni antroposentrik nuqtayi nazardan talqin etishda esa insonning mental ongi, tafakkuri, idroki va madaniy munosabatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar ko'chma ma'noga tayangan lug'aviy birliklar bo'lib, ularning frazeologik mazmuni asrlar davomida til egasining lisoniy ongi va idroki bilan uzviy bog'liq holda shakllanib, tobora sayqallanib boradi. Shu bois frazeologizmlar milliy tilning barcha ijtimoiy vazifalarini hamda xalqning ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan muhim til birliklari sanaladi. Ularni yig'ish, asrash va qo'llanish doirasini kengaytirish milliy til taraqqiyotini yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biridir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Maqola doirasida ingliz va o'zbek tillarida maqsad hamda intilishni ifodalovchi frazeologik birliklarni o'rganish uchun turli nazariy va amaliy manbalar tahlil qilindi. A.P. Cowie "Phraseology: Theory, Analysis, and Applications" nomli kitobida frazeologiyaning nazariy asoslari, frazeologik birliklarning turlari va tilshunoslikdagi tadqiqot yo'nalishlarini batafsil yoritadi [1]. R. Moonning "Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach" nomli tadqiqoti ingliz tilidagi barqaror iboralar va idiomalarni korpus asosida o'rganib, ularning semantik va pragmatik jihatlari ko'rsatadi, bu esa ingliz tilidagi maqsad va intilish frazeologizmlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega [2].

"Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English" lug'ati ingliz tilidagi frazeologik birliklarni amaliy nuqtai nazardan tasniflab, ularning ma'nolari va

kontekstlardagi qo'llanilishini taqdim etadi. O'zbek tilshunosligi nuqtai nazaridan S.Karimov va N.Mahmudovning "Tilshunoslikka kirish" kitobi tilshunoslikning nazariy asoslarini yoritib, frazeologik birliklarni o'rganish uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi [3].

Shuningdek, A.E.Mamatovning "O'zbek tili frazeologiyasi masalalari" [4] va Sh.Rahmatullayevning "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Frazeologiya" [5] kitoblari o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning semantik, leksik va madaniy jihatlarni batafsil ochib beradi. Bu manbalar orqali frazeologizmlarning maqsadga yo'naltirilganligi, intilish va iroda, shuningdek milliy-madaniy obrazlari aniqlanadi va qiyosiy tahlil uchun asos yaratiladi.

Natijada, yuqoridagi ilmiy adabiyotlar ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qilish, ularning semantik xususiyatlari va terminologik aniqlik masalalarini chuqurroq tushunish uchun mustahkam nazariy va metodologik asosni ta'minlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analogik tahlil, analiz, sintez kabi metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Maqsad va intilishni ifodalovchi frazeologizmlar subyektning muayyan natijaga erishishga yo'naltirilganligini bildiruvchi intensionallik semantikasi bilan birlashgan murakkab barqaror birliklar guruhini tashkil etadi. Ushbu guruhning konseptual chegaralari qat'iy emas, balki boshqa semantik maydonlar bilan o'zaro kesishib boradi. O'zbek va ingliz tillarida "maqsad" hamda "intilish" konsepti, avvalo, qat'iyat bilan ishga kirishish, kuchli sa'y-harakat qilish, yuksak orzu va ambitsiyaga ega bo'lish, shuningdek, natijaga tez erishishga intilish kabi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi "bel bog'lamoq", "jonini jabborga bermoq" kabi iboralar qat'iy qaror va fidokorona mehnatni anglatadi, ingliz tilidagi to take the bull by the horns iborasi muammoni dadil hal etishga kirishishni bildiradi, to work one's fingers to the bone esa nihoyatda mashaqqat bilan ishlash ma'nosini ifodalaydi [6].

Shuningdek, o'zbek tilidagi "osmonda uchmoq" iborasi ba'zan xayolparastlikni, ba'zan esa yuksak orzularga berilishni anglatganidek, ingliz tilidagi to chase one's dreams birikmasi ideal sari qat'iy intilishni ko'rsatadi. Tilshunoslikda bunday birliklarni aniqlash va tasniflash masalasi terminologik noaniqlik bilan bog'liq bo'lib, "frazeologizm", "idioma" yoki "barqaror birikma" kabi atamalar ko'pincha bir-biriga yaqin ma'noda qo'llaniladi; motivatsiya darajasiga ko'ra esa ular ochiq ma'nolilikdan to'liq idiomatiklikkacha farqlanadi. Qiyosiy jihatdan qaralganda, ingliz frazeologizmlarida sport, dengizchilik yoki faol harakat obrazlari ko'proq uchrasa, o'zbek tilida maishiy turmush va milliy tasavvurlar bilan bog'liq timsollar ustunlik qiladi. Har ikkala tilda ham mazkur frazeologik birliklar nutqqa obrazlilik, hissiy ta'sirchanlik va ma'no aniqligi baxsh etib, so'zlovchining maqsad va niyatini yanada ravshan ifodalashga xizmat qiladi [7].

Set/target a goal – ingliz tilidagi ushbu birikma maqsad qo'ymoq, aniq bir maqsadni belgilamoq degan ma'noni anglatadi: Set a goal – umumiy maqsadni belgilash jarayonini bildiradi. She set a goal to learn English in one year. U bir yil ichida ingliz tilini o'rganishni maqsad qilib qo'ydi. Target a goal – maqsadni aniq yo'naltirish, unga erishishga qaratilgan harakatni ta'kidlash ma'nosida qo'llaniladi: The team is targeting a higher result this season. Jamoa bu mavsumda yanada yuqori natijani maqsad qilmoqda. Ikkala ibora ham maqsad va intilishni ifodalovchi faoliyatni bildiradi, biroq target a goal odatda yanada aniq va strategik yo'naltirilgan maqsadni anglatadi. Frazeologik birliklar maqsadni yashirin yoki bilvosita ifodalash bilan bog'liq bo'lib, ularning ingliz tiliga mazmuniy tarjimalari quyidagicha berilishi mumkin: bahonayi

sabab diydor g'animat – biror narsani bahona qilib, asl maqsadga erishmoq. Inglizcha mazmuni: to use an excuse to achieve one's real aim, to make a pretext for meeting/achieving something. Dardini ochmoq (kimga?) – ichidagi gapini, asl niyat yoki maqsadini aytmoq. Inglizcha mazmuni: to open one's heart, to reveal one's intention, to confide one's purpose. Daromadi ushshoq – asosiy maqsadni bildirish uchun uzoqdan, bilvosita gap boshlamoq. Inglizcha mazmuni: to beat around the bush before stating one's aim, to approach the point indirectly. Jilovidan tortib qo'ymoq (kimni?) – nojo'ya xatti-harakatdan qaytarish maqsadida ogohlantirmoq yoki gapirmoq. Inglizcha mazmuni: to hold someone back, to restrain someone with a warning, to pull someone up to stop improper action. Bu birliklar nutqda bevosita emas, balki bilvosita maqsadni ifodalash, suhbatdoshga ta'sir ko'rsatish yoki niyatni ochish kabi pragmatik vazifalarni bajaradi [8].

Tilning kommunikativ, emotsional-ekspressiv va akkumulyativ vazifalari o'zbek hamda ingliz tillarida umumiy bo'lsa-da, frazeologik birliklarning shakllanishi va qo'llanishida muayyan farqlar kuzatiladi. Har ikkala tilda frazeologizmlar ko'chma ma'noga asoslanib, xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlar va lisoniy ongida shakllanadi; biroq obrazlilik manbalari turlicha: o'zbek tilida ko'proq maishiy turmush, urf-odat va milliy tasavvurlar aks etsa, ingliz tilida sport, dengizchilik yoki ijtimoiy faoliyat bilan bog'liq timsollar ustunlik qiladi. Shu bilan birga, ikki tilni qiyoslash jarayonida terminologik aniqlik muammosi yaqqol namoyon bo'ladi. "Frazeologizm", "idioma", "barqaror birikma" kabi atamalar ingliz va o'zbek tilshunosligida har doim ham bir xil chegarada qo'llanmaydi, bu esa birliklarni tasniflash va lug'aviy tavsiflashda noaniqlik tug'diradi. Ayrim ifodalar bir tilda to'liq idiomatik birlik sifatida qaralsa, boshqa tilda yarim erkin birikma sifatida talqin qilinishi mumkin. Natijada semantik moslik mavjud bo'lsa ham, struktur va pragmatik darajadagi tafovutlar tarjima hamda qiyosiy tadqiqotlarda murakkablik keltirib chiqaradi [9].

Demak, o'zbek va ingliz frazeologizmlarini chog'ishtirish nafaqat ularning umumiy semantik asoslarini, balki terminologik chegaralardagi noaniqliklarni ham ochib beradi; bu esa frazeologiyani yanada aniqroq nazariy mezonlar asosida tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi. Tilning kommunikativ, emotsional-ekspressiv va akkumulyativ vazifalari o'zbek hamda ingliz tillarida umumiy bo'lsa-da, frazeologik birliklarning shakllanishi va qo'llanishida muayyan farqlar kuzatiladi. Har ikkala tilda frazeologizmlar ko'chma ma'noga asoslanib, xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlar va lisoniy ongida shakllanadi. Masalan, o'zbek tilidagi "bel bog'lamoq" qat'iy maqsad qo'yishni bildirsa, ingliz tilidagi set a goal yoki be determined to do something birikmalari shu mazmunga yaqin keladi; "jonini jabborga bermoq" iborasi kuchli sa'y-harakatni anglatadi, inglizchada work one's fingers to the bone shunga mos keladi [10].

Biroq obrazlilik manbalari turlicha: o'zbek tilida maishiy hayot va milliy tasavvurlar ustun bo'lsa, ingliz tilida sport yoki faol harakat bilan bog'liq timsollar ko'proq uchraydi. Masalan, ingliz tilidagi take the bull by the horns muammoni dadil hal qilishni bildiradi, o'zbek tilida esa bu ma'noga "gapni cho'zmay ishga kirishmoq" yoki "dadil qadam tashlamoq" kabi ifodalar yaqin turadi. Ikki tilni qiyoslashda terminologik aniqlik muammosi ham seziladi. "Frazeologizm", "idioma", "barqaror birikma" atamalar har ikki tilshunoslik an'analari bir xil chegarada qo'llanmaydi. Masalan, ingliz tilidagi to open one's heart ko'pincha idioma sifatida qaralsa, o'zbekchadagi "dardini ochmoq" ba'zan oddiy ko'chma ma'noli birikma sifatida ham talqin qilinadi. Xuddi shuningdek, to beat around the bush ingliz tilida to'liq idiomatik birlik hisoblanadi, o'zbek tilidagi

“gapni aylantirmoq” esa ayrim tadqiqotlarda frazeologizm, boshqalarida erkinroq birikma sifatida izohlanadi [11].

**Xulosa va takliflar.** Umuman olganda, ingliz va o'zbek tillaridagi maqsad va intilishni ifodalovchi frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qilish natijalari frazeologiya,

tarjimashunoslik va lingvokulturologiya sohalari uchun muhim amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo'lib, tilshunoslik va madaniyatlarni o'zaro taqqoslashda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Cowie A.P. *Phraseology: Theory, Analysis, and Applications*. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 280 p.
2. Hornby A.S. *Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English*. London: Oxford Univ.Press, 1980. –1540 p.
3. Karimov S., Mahmudov N. *Tilshunoslikka kirish*. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – 256 bet.
4. Mamatov A.E. *O'zbek tili frazeologiyasi masalalari*. – Toshkent: Fan, 2010. – 192 bet.
5. Moon R. *Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach*. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 338 p.
6. Rahmatullayev Sh. *Hozirgi o'zbek adabiy tili. Frazeologiya*. – Toshkent: Universitet, 2006. – 240 b.
7. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. *O'zbek tili frazeologik lug'ati: lug'at*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.
8. Амосова Н.Н. *Основы английской фразеологии*. – Ленинград: ЛГУ, 1963. – 208 б.
9. Виноградов В.В. *Русский язык. Лексикология и лексикография*. – Москва: Наука, 1977. – 312 б.
10. Кунин А.В. *Курс фразеологии современного английского языка*. – Москва: Высшая школа, 1996. – 381 б.
11. Телия В.Н. *Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты*. – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 б.